



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 2 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI .....	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK .....	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN .....	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА .....	30-37
<i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI .....	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI .....	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA .....	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI .....	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN .....	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR .....	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) .....	79-84

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH .....	85-89
---	-------

<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI .....	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI .....	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i>	
CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI .....	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI .....	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i>	
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA .....	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i>	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i>	
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI .....	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i>	
MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i>	
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	161-166
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i>	
ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI .....	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i>	
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI .....	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	
BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAAQQIYOTINING ASOSI .....	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i>	
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG" .....	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i>	
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI .....	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i>	
IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI .....	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i>	
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI .....	203-206
<i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i>	
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI .....	207-213
<i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i>	
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI .....	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i>	
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT .....	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i>	
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI .....	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI .....	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI .....	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i>	
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) .....	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i>	
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI .....	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i>	
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA .....	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i>	
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI .....	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i>	
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI .....	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i>	
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI .....	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i>	
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI .....	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i>	
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI .....	282-285

## **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i>	
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i>	
MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH ..... 290-296	
<i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i>	
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI .....	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i>	
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT" .....	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i>	
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA .....	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i>	
TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI .....	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI .....	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i>	
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES .....	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i>	
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI .....	332-338
<i>Babayeva Iroda</i>	
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING .....	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i>	
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i>	
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA) .....	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI .....	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	358-363
<i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI .....	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI .....	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i>	
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI .....	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i>	
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI .....	379-385
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Muhitdanova Firuza</i>	
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА .....	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i>	
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI .....	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i>	
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH .....	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i>	
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI .....	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxonovich</i>	
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI .....	420-425
<i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i>	
JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI .....	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i>	
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI .....	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i>	
BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI .....	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i>	
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI .....	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i>	
RAQAMLI ERA DA SUN'iy INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA .....	448-455
<i>Juraeva Asal</i>	
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS .....	456-461
<i>Собиров Сайдбек Махмудович</i>	
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ .....	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i>	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i>	
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI .....	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i>	
SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR .....	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i>	
MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI .....	492-500
<i>Yusupov O'ktamboy</i>	
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI .....	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i>	
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI .....	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ .....	519-523
<i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i>	
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI .....	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI .....	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i>	
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ .....	537-542
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i>	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI .....	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH .....	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI .....	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA .....	577-582
<i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i>	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ .....	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i>	
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR .....	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i>	
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI .....	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i>	
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI .....	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI .....	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI .....	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i>	
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI .....	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI .....	622-625
<i>Elova Sitora Axmatkulovna</i>	
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI .....	626-629

**Received:** 25 January 2025

**Accepted:** 1 February 2025

**Published:** 10 Febrary 2025

*Article / Original Paper*

## **THE ISSUE OF TRAINING STAFF FOR THE TOURISM SECTOR IN KHOREZM REGION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE**

**Tojiev Alisher Sultannazirovich**

UrSU, teacher of the Department of History

E-mail: [alishertojiyev@mail.ru](mailto:alishertojiyev@mail.ru)

**Abstract.** This article addresses the issue of training personnel for the tourism sector in the Khorezm region. It analyzes the methods and pathways for training specialists necessary for effectively utilizing Khorezm's tourism potential, as well as the challenges encountered in this process and their solutions.

**Keywords:** "Tourism service", "Reception" corner, "Silk road" international tourism University, Khiva tourism and cultural heritage technical school.

## **MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRALAR TAYYORLASH MASALASI**

**Tojiev Alisher Sultannazirovich,**

UrDU, Tarix kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Xorazm viloyatida turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash masalasiga bag'ishlangan. Maqolada Xorazmning turistik salohiyatidan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan mutaxassislar tayyorlash yo'llari va usullari, shuningdek, bu jarayonda duch keladigan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** "Turizm servisi", "Resepshn" burchagi, "Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti, Xiva turizm va madaniy meros texnikumi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N08>

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Jumladan, ta'lif tizimida ham tub o'zgarishlarni amalga oshirish, uni xalqaro ta'lif standartlariga mos ravishda isloq qilish, mehnat bozorining bugungi kun talablariga mos bo'lgan malakali va istiqbolli kadrlar tayyorlash hamda Uchinchi Renessans g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni tarbiyalash borasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotgani yaqqol ko'rinish turibdi. Bu keskin raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarni keng joriy etish orqali javob berish mumkin. "Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqr bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'yimoqda" [1, b. 237].

Turli sohalar bo'yicha kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq.

Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun shart – sharoitlar yaratishdan iborat”, [4, b. 1] degan so‘zlarida ham ko‘rish mumkin.

Turizm sohasi bo‘yicha zamon talablari darajasida mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan maxsus ta’lim muassasalarini yaratish hamda shu asosda mamlakatimizda turizmning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 30-iyunda e’lon qilingan PF-2332-sonli farmoni turizm sohasida har tomonlama yetuk kadrlar tayyorlashda muhim omil bo‘ldi. Ushbu farmonni tahlil qiladigan bo‘lsak, respublikamizda turizm sohasi bo‘yicha yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, turizmning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida qabul qilinib, 1999/2000-o‘quv yilidan turizm sohasi bo‘yicha oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida boshlab yuborildi. Ushbu muassasada “Xalqaro turizm” fakulteti, uning “Turizm menejmenti”, “Turizm servisi”, “Turizm marketingi” kafedralari tomonidan turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlanib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 15-apreldagi PF-2286-sonli va 1999-yil 30-iyundagi PF-2332-sonli farmonlarini bajarish, yurtimizda turizm bo‘yicha zamon talablari darajasida mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan maxsus ta’lim muassasalarini yaratish hamda shu asosda mamlakatimizda turizmning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 2-iyulda VM-324-sonli qarori qabul qilingan. Qarorga asosan, 1999-yil 1-avgustgacha muddatda Toshkent shahar mehmonxona xo‘jaligi va turizm litseyi negizida Toshkent kasb-hunar kollejini tashkil qilish, qayta ixtisoslashish uchun mablag‘ ajratish ko‘zda tutildi. Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg‘ona, Termiz va Shahrisabz shaharlarida turizm kasb-hunar kollejlari ochilishini bosqichma-bosqich amalga oshirish vazifasi belgilandi [2, b. 47].

Xorazm viloyati O‘zbekistonning ko‘pgina mintaqalari kabi turizmni rivojlantirish bo‘yicha yetarli darajada salohiyatga ega bo‘lib, bugungi kunda viloyatda turizmni rivojlantirishga asosiy makroiqtisodiy muammolar hisoblangan ishsizlikni bartaraf etish hamda aholi daromadlarini oshirishdagi istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda [3, b. 61].

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyul “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RQ-549-sonli qonunining qabul qilinishi turizm sohasini barqaror rivojlantirishda, malakali kadrlar bilan ta’minalashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdaggi VM-466-son qarori qabul qilingan. Ushbu qarordan ko‘zlangan maqsad O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-sonli farmon [6, b. 4] ijrosini ta’minalashdan iborat bo‘lib, qarorning 4-bandida: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-apreldagi VM-232-sonli qaroriga muvofiq kasb-hunar maktablarida boshlang‘ich professional ta’lim dasturlari asosida ta’lim oladigan o‘quvchilarga O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida oylik stipendiya hamda uch mahal ovqat bilan ta’minalash tartibi 2021/2022 o‘quv yilidan joriy etilishi belgilangan.

2020-yil 11-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VM-715-sonli qarori qabul qilingan. Tahlil qiladigan bo‘lsak, qarordan maqsad O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining “2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida” 2020-yil 2-martdagি PF-5953-sonli farmoniga muvofiq yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallahsga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda professional ta'lrim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini belgilash hisoblanadi. Qarorning 4-bandida: “O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta'lrim vazirligi 2021-yil 1-aprelga qadar oliy ta'lrim muassasalari huzuridagi texnikumlari bitirgan o'quvchilar o'z sohasi bo'yicha kirish imtihonlarisiz, yakka tartibdagi suhbat orqali mos bakalavriat ta'lrim yo'nalishlarida 2-bosqichdan o'qishini davom ettirishini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kirtsin” deyilgan.

2021-yil 29-martda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VM-163-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qarorning 4-bandida: O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta'lrim vazirligi, tizimida professional ta'lrim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar o'quvchilarni haftada kamida ikki kun professional ta'lrim muassasalaridagi o'quv jarayonlarida ishtirok etishlarini va qolgan ish kunlarida tegishli tashkilotlarda amaliy mashg'ulotlar bilan birga mehnat faoliyati olib borishlarini ta'minlasin deb belgilangan.

2021-yil 30-oktyabrda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5270-sonli qarori [7, b. 9] qabul qilingan. Ushbu Prezident qarorining maqsadi O’zbekiston Respublikasida turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida xalqaro standartlarga mos uzuksiz ta'lrim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonini yo'lga qo'yish, fan, ta'lrim va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlashdan iborat hisoblanadi.

Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida 2022-yil 7-martda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-87-sonli farmoni qabul qilingan. Ushbu prezident farmonining 3-bandida: Xotin-qizlarga ta'lrim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2022-2023-o'quv yilidan boshlab: a) oliy ta'lrim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan sirtqi va kechki ta'lrim shaklida o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lrim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta'lrim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga Davlat byudjetidan har yili 1,8 trillion so'm resurs mablag'larni yo'naltirsin; b) davlat oliy ta'lrim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, Davlat byudjetidan har yili kamida 200 milliard so'm moliyalashtirilsin deb ko'rsatilgan.

Xiva turizm va madaniy meros texnikumi 2002-yil umumta'lim maktabini rekonstruksiya qilish yo'li bilan Xiva turizm kasb-hunar kolleji sifatida o'z faoliyatini boshlagan. Ushbu jamoaga Ro'zmetov G'ayrat Ismailovich ko'p yillardan beri rahbarlik qilib kelmoqda. Ta'lrim muassasasi faoliyati davomida turizm, mehmonxona xizmati, umumiy ovqatlanish

xizmatlarini tashkil qilish, dizaynerlik, buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishlarida ko'pgina kadrlarni yetishtirib chiqargan.

2019-yil 2-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5812-sonli qaroriga asosan ta'lif muassasasi Xiva turizm va servis kolleji sifatida o'z faoliyatini yangidan boshladi hamda turistik shahar hisoblangan Xiva shahri hamda Xorazm viloyatiga turistik bozor uchun kadrlar tayyorlashni boshladi.

2021-yil 30-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5270-son qaroriga [8, b. 3] muvofiq ta'lif muassasasi Xiva turizm va servis kollejidan Xiva turizm va madaniy meros texnikumiga o'zgartirildi. Texnikum turistik bozor uchun o'rta maxsus professional kadrlar tayyorlashni boshladi. Ta'lif muassasasida turizm, mehmonxona xo'jaligini tashkil qilish va boshqarish, umumiyoq ovqatlanish xizmatlarini tashkil qilish, buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishlari bo'yicha 225 ta talaba bilim olib kelmoqda.

Xiva turizm va madaniy meros texnikumida ta'lif sifatini oshirish va turistik bozorga yuqori malakali kadrlarni yetishtirib berish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni hamda "2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-martdagi VM-110-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qarorning 61-bandida: 2022-yil dekabrgacha bo'lgan muddatda Xiva turizm va madaniy meros texnikumini rekonstruksiya qilish ko'rsatilgan bo'lib, asosan texnikumning asosiya va yordamchi binolarini to'liq rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun 12 869 291 065,00 (o'n ikki milliard sakkiz yuz oltmis to'qqiz million ikki yuz to'qson bir ming oltmis besh) so'm mablag' ajratilib qurilish, ta'mirlash ishlar amalga oshirildi. Ta'lif sifatini xalqaro standartlar talabiga chiqarish hamda xalqaro ta'lif standartlari asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida ta'lif muassasasi bir necha xalqaro tashkilotlar hamda chet el oliy ta'lif muassasalarini bilan hamkorlik aloqalari amalga oshirilmoqda.

Germaniya tajribasi asosida DUAL ta'lif tizimini tashkil qilish maqsadida Germaniya hamkorlik tashkiloti (GIZ) bilan "O'zbekiston hududlarida iqtisodiy islohotlar va barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash" loyihasi doirasida hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Ushbu loyiha uchun 56 ming yevro (650 million so'm) mablag' ajratilib ta'lif muassasasi hududida mehmonxona, restoran xizmati, mijozlarni qabul qilish yo'nalishlari bo'yicha o'quv laboratoriya xonalari to'liq jihozlandi hamda texnikumning axborot-kutubxona markazi uchun 520 ta rus va ingлиз tilidagi adabiyotlar olib kelindi.

Loyiha doirasida o'qituvchilarning malakasini oshirish hamda DUAL ta'lif tizimini xalqaro tajriba asosida joriy qilish maqsadida o'quv seminarlari tashkil qilindi hamda ta'lif muassasasida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar jamoasi 2022-yilning oktyabr oyida Yevropa ittifoqining Irlandiya davlatining Dublin universitetiga 2 haftalik tajriba almashish uchun seminarlarga yuborildi. Shu jumladan xalqaro hamkorlik aloqalari Shimoliy Skopiya Turizm va menejment universiteti hamda Hindistonning Dehli universiteti bilan ham yo'lga qo'yilgan.

Xorazm viloyatida turizm sohasini har tomonlama rivojlanishiga zamonaviy, malakali kadrlar tayyorlash bilan o'z hissasini qo'shib kelgan ta'lif muassasalaridan biri Urganch turizm

va tadbirkorlik kasb-hunar kolleji hisoblanadi. Ushbu ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazining 2006-yil 1-fevraldagi 10-sonli qarori bilan tashkil qilingan, 2008-yil 22-iyuldaggi 128-sonli qarori bilan nomi Urganch turizm va tadbirkorlik kasb-hunar kolleji deb o'zgartirilgan. 2021-yil 30-oktyabrdagi PQ-5270-sonli qarordan [5, b. 300] keyin ushbu kollej faoliyati tugatildi va uning negizida turizm sohasi uchun 3-darajali oshpaz va mehmonxona xizmatchisi tayyorlaydigan umumta'lim o'rta maktab tashkil qilindi. Ta'lim muassasasining quvvati 600 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan, o'quvchilar uchun 50 o'rinali yotoqxona faoliyati yo'lga qo'yilgan. Urganch turizm va tadbirkorlik kasb-hunar kollejida 2006-2021-yillar mobaynida bir qator yo'nalishlar bo'yicha turizm bozori uchun mutaxassis kadrlar tayyorlangan.

Urganch turizm va tadbirkorlik kasb-hunar kolleji 2006-2021-yillar mobaynida bitiruvchilarining ishlab chiqarish hamda diplom oldi amaliyotlarini o'tashi va ularni ishga joylashtirish borasida "Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Xorazm mintaqaviy bo'limi", "Xiva turizmni rivojlantirish" markazi, Xiva "Ichon qal'a" davlat muzey qo'riqxonasi, "Xorazm Palas" mehmonxonasi, "Xiva Aziya" mehmonxonasi, "Fayz" mehmonxonasi kabi korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik qilgan.

Urganch turizm va tadbirkorlik kasb-hunar kolleji faoliyati davomida Urganch Davlat Universiteti, Toshkent Iqtisodiyot Universiteti, Toshkent Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Samarqand iqtisodiyot va servis Instituti kabi o'quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatgan. 2005-yilda Urganch turizm kollejining 4 nafar o'qituvchisi Misr, Koreya, Kipr va Yaponiya davlatlarida sayyohlik va mehmonxona yo'nalishlari bo'yicha malaka oshirib qaytdilar [5, b. 8].

2009-2010-o'quv yilida kollej viloyat turizm bozori uchun, 8 ta yo'nalish bo'yicha 367 nafar kadrlar tayyorlagan.

Urganch turizm va tadbirkorlik kasb-hunar kollejida turizm sohasi uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, 2 ta kompyuter xonasi, 1 ta kimyo xonasi, 1 ta biologiya xonasi, 4 ta lingafon xonalari, "O'quv mehmonxonasi", "O'quv restorani", "O'quv oshxonasi", "Resepshn" burchagi va ustaxonalar mavjud.

2006-2021-o'quv yillari mobaynida ushbu ta'lim muassasasi har yili yuzlab mutaxassis kadrlarni yetishtirib berdi.

"Bugun biz Samarqandda turizm sohasida mutaxassislar tayyorlaydigan va ularning malakasini oshiradigan, dunyoda o'xhashi yo'q Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasini ochdik. Ishonchim komilki, ushbu Akademiya global ta'lim xabiga aylanadi va jahon turizm sanoatini yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shamdi. Kelgusi o'quv yildan boshlab O'zbekiston iqtidorli mutaxassislar uchun maxsus grantlar taqdim etadi va davlatlaringiz vakillarini bu dasturda faol ishtiroy etishga chaqiradi" dedi, Sh.Mirziyoyev 2023-yil 16-oktyabr kuni Samarqandda Butun Jahon Turizm tashkiloti 25-sessiyasining ochilish marosimida so'zlagan nutqida [9, b. 3].

Xulosa qilib aytganda, viloyatda turizm yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, turizmning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar Xorazm viloyatining turizm salohiyatidan foydalanishni yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish, xorijiy va mahalliy

turistlarning hududdagi noyob tarixiy-madaniy va me'moriy yodgorliklar bilan keng qamrovda tanishishlari uchun qulay sharoit yaratadi.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Mirziyoev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 237.
2. Nazarova G.G., Mirzaev M.A., Alieva M.T. Turizm huquqi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Tafakkur nashriyot uyi", 2003. – B. 47.
3. Salaev S., Ollanazarov B. Turistik xizmatlar sohasida investitsion faollikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari. Monografiya. – Urganch: "Quvonchbek-Mashhura" MCHJ nashriyoti, 2020. – B. 61.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // Xalq so'zi, 2017-yil 20-sentyabr. № 189 (6883). – B. 1.
5. Boliev E. Xorazmnинг oltin halqasi. // Xalq so'zi, 2006 yil 21 iyul, № 140-141 (4039-4040) – B. 8.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lrim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son farmoni.// <https://lex.uz>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-oktyabrdagi "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzlusiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5270-son qarori.// <https://lex.uz>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-oktyabrdagi "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzlusiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5270-son qarori.// <https://lex.uz>.
9. Butunjahon turizm tashkilotining Samarqandda bo'lib o'tgan 25-sessiyasi.// <https://lex.uz>.
10. Urganch turizm va tadbirkorlik kasb-xunar kolleji pasporti ma'lumotlari. 2022. – B. 18.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 2 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).